

INGLIZ TILINI O'QITISHDA TALAFFUZNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Buranova Asila Elbek qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti ingliz tili y o'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida to'g'ri talaffuzni shakllantirishning lingvistik va metodik asoslari yoritilgan. Talaffuzning eshitib tushunish va samarali muloqotni ta'minlashdagi hal qiluvchi o'rni asoslab berilib, ingliz va o'zbek tillari fonetik tizimlari qiyosiy tahlil qilingan. Unli va undosh tovushlarning artikulyatsion xususiyatlari, jarangli va jarangsiz undoshlarning ma'noni farqlovchi vazifasi, unli tovushlarning uzun-qisqaligi, urg'u, intonatsiya va pauzaning kommunikativ ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ingliz tilida so'z yozilishi va talaffuzi o'rtasidagi tafovutlar, tovush–harf munosabatining murakkabligi, diftong va triftonglarning talaffuzdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tinglab tushunish jarayonida talaffuzning hal qiluvchi ahamiyati S. I. Bernshteyn qarashlari asosida izohlanib, fonetik xatolarning kommunikativ muammolarni yuzaga keltirishi ko'rsatib berilgan. Maqolada, shuningdek, o'zbek tilida so'zlashuvchi talabalar uchun ingliz tilini o'rganishda mavjud bo'lgan lingvistik va grafik ustunliklar hamda lotin alifbosining o'qitishdagi didaktik ahamiyati yoritilgan

Kalit so'zlar: To'g'ri talaffuz, fonetik tizim, eshitib tushunish, artikulyatsiya, urg'u va intonatsiya, tovush–harf munosabati, fonetik mashqlar, kommunikativ kompetensiya

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвистические и методические основы формирования правильного произношения в процессе обучения английскому языку. Обоснована решающая роль произношения в развитии навыков аудирования и обеспечении эффективной коммуникации, а

также проведён сопоставительный анализ фонетических систем английского и узбекского языков. Проанализированы артикуляционные особенности гласных и согласных звуков, смыслоразличительная функция звонких и глухих согласных, долгота и краткость гласных, а также коммуникативная значимость ударения, интонации и пауз. Рассмотрены расхождения между орфографией и произношением в английском языке, сложность соотношения звуков и букв, роль дифтонгов и трифтонгов. Значение произношения в процессе аудирования раскрывается на основе взглядов С. И. Бернштейна; показано, что фонетические ошибки приводят к коммуникативным трудностям. Также освещены лингвистические и графические преимущества изучения английского языка для узбек язычных обучающихся и дидактическая значимость латинского алфавита.

Ключевые слова: *Правильное произношение, фонетическая система, аудирование, артикуляция, ударение и интонация, соотношение звук–буква, фонетические упражнения, коммуникативная компетенция*

Abstract: *The article explores the linguistic and methodological foundations of developing correct pronunciation in the process of teaching English. The crucial role of pronunciation in listening comprehension and effective communication is substantiated, and a comparative analysis of the phonetic systems of English and Uzbek is conducted. The study examines the articulatory features of vowels and consonants, the meaning-distinguishing function of voiced and voiceless consonants, vowel length, as well as the communicative significance of stress, intonation, and pauses. Differences between English spelling and pronunciation, the complexity of sound–letter correspondences, and the role of diphthongs and trip thongs are also analyzed. Drawing on the views of S. I. Bernstein, the article highlights the decisive importance of pronunciation in listening comprehension and demonstrates how phonetic errors lead to communicative difficulties. In addition, linguistic and graphic*

advantages for Uzbek-speaking learners of English and the didactic value of the Latin alphabet are discussed.

Keywords: *Correct pronunciation, phonetic system, listening comprehension, articulation, stress and intonation, sound–letter correspondence, phonetic drills, communicative competence*

O‘z-o‘zini anglash kompetensiyasining shakllanganligi, ta’lim xizmatlaridan samarali va ongli foydalana olish, ilmiy hamda kasbiy bilimlarni chuqur egallash shaxsning yetuk mutaxassis sifatida kamol topishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois bugungi kunda har bir yosh mutaxassisning uzluksiz o‘z ustida ishlashi, mustaqil izlanishi va kasbiy rivojlanishga intilishi zamon talabiga aylangan.

Mazkur jarayonda akademik litseylar, kasb-hunar maktablari hamda oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishni samarali tashkil etish, ayniqsa til materialini o‘quvchi ongiga tez va puxta singdirish dolzarb masalalardan biridir. Global integratsiya va raqamli kommunikatsiya sharoitida ingliz tilini faqat grammatik jihatdan emas, balki fonetik jihatdan ham to‘g‘ri egallash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Turli tillarning ilmiy muomalaga kiritilishi ularni muhim belgilar asosida tasniflash zaruratini keltirib chiqardi. Evolyutsion yondashuvga ko‘ra, bunday tasnif tarixiy asosga ega bo‘lishi lozim edi. Bir guruh turdosh tillarda tuzilish xususiyatlarining umumiyliigi ularning arxaik xususiyatlarini ko‘rsatadi, tashqi omillar ta’sirida yuzaga kelgan o‘xshashliklar bundan mustasno.

Ingliz tilining asosiy xususiyatlaridan biri uning to‘g‘ri va ravon talaffuz qilinishi bilan bog‘liq. Ma’lumki, talaffuz me’yorlariga rioya qilmaslik, tovushlarning buzib aytilishi nutqning tushunarsiz bo‘lishiga, og‘zaki muloqot samaradorligining pasayishiga olib keladi. Bu holat kommunikativ to‘siqlarni yuzaga keltirib, o‘quvchining tilga bo‘lgan ishonchini susaytiradi. [5, 782]

Shu sababli ingliz tili tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish jarayoni ularning fiziologik-artikulyatsion xususiyatlari, nutq apparati organlarining talaffuz

jarayonidagi holatini ilmiy asosda o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. To'g'ri talaffuzni shakllantirishda ingliz tilining fonetik tizimi va an'anaviy orfografiyasi muhim rol o'ynaydi. Og'zaki nutq tovushlardan, yozma nutq esa harflardan tashkil topadi [2, 45]. Tovush — talaffuz birligi, harf esa ushbu tovushning yozuvdagi grafik ifodasidir.

Aniq va me'yoriy talaffuz eshitilayotgan nutqni to'g'ri idrok etish, tovushlarni mazmun bilan to'g'ri assotsiatsiya qilish imkonini beradi. Aksincha, fonematik xatolar, so'zlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi, urg'u va intonatsiyaning noo'rin qo'llanishi tinglovchida nutqni noto'g'ri tushunishga olib kelib, kommunikativ jarayonni izdan chiqaradi.

S. I. Bernshteyn ta'kidlaganidek, inson faqat o'zi to'g'ri talaffuz qila oladigan tovushlarga to'liq va aniq eshita oladi. Ushbu qarash xorijiy tilni, xususan, ingliz tilini o'rganishda talaffuz va eshitib tushunish ko'nikmalarining o'zaro chambarchas bog'liqligini yaqqol namoyon etadi.

Ingliz tilining muhim xususiyatlaridan yana biri so'zlarning ko'p ma'noliligidir [3, 102]. Ayrim so'z va terminlar besh–o'n, hatto undan ortiq ma'nolarga ega bo'lib, ularni me'yoriy talaffuz qilishning o'zi tinglovchining mazmunni to'g'ri idrok etishini kafolatlamaydi. Bunday holatda nutqning konteksti, vaziyat va intonatsion xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ingliz tilida turli xarakterdagi nutqni aniq va to'liq tushunish kommunikativ muvaffaqiyatning muhim shartidir. Aniq idrok etish esa tinglovchining so'z borayotgan predmet va hodisalar haqidagi tasavvurini adekvat shakllantira olishiga bevosita bog'liqdir.

Talaffuzni to'g'ri shakllantirishda o'zbek va ingliz tillarining fonologik tizimlari o'rtasidagi farqli jihatlarni aniqlash muhimdir. Ingliz tili tovush tizimi ustida izchil ishlash, imitatsiya usulidan uzluksiz foydalanish hamda artikulyatsion qoidalarni amaliy jarayonda qo'llash talaffuzni ratsional va ongli o'zlashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi [4, 220].

Ingliz tilida bir tovushning turli harf yoki harf birikmalari orqali ifodalanishi keng tarqalgan. Shu sababli bekamu-kust va me'yoriy talaffuzga erishish uchun bitta

tovushga mos keluvchi harf birikmalarini, shuningdek talaffuz qilinmaydigan harflarni kompleks tarzda o'rganish va mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tilining fonetik tizimidagi muhim jihatlardan biri unli tovushlarning uzun va qisqa talaffuz qilinishidir. Mazkur farq so'z ma'nosini ajratuvchi fonologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Masalan: *the-thee*, *cod-code*, *be-bee*, *dun-dune*, *dip-deep* kabi juftliklarda unli tovushlarning davomiyligi leksik ma'noni belgilaydi.

Ingliz tilida monoftong unli tovushlar bilan bir qatorda diftong va triftonglar ham mavjud bo'lib, ketma-ket kelgan ikki yoki uch unli tovush nutqda yagona fonetik birlik sifatida talaffuz qilinadi. Ushbu fonetik hodisalarni ongli ravishda o'zlashtirish o'quvchilarning tabiiy va ravon talaffuzni shakllantirishida muhim omil hisoblanadi.

Unli tovushlarni talaffuz qilish jarayonida tovush paychalarining faol ishtiroki natijasida ovoz hosil bo'ladi. O'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi. Shu sababli unli tovushlar ohangdor va musiqali tembrga ega bo'ladi.

Undosh tovushlarni talaffuz qilishda esa nutq apparati organlarining to'liq yoki qisman ishtiroki natijasida havo oqimi turli darajadagi to'siqlarga duch keladi. Natijada undosh tovushlar shovqinli xarakter kasb etadi. Demak, unlilarning asosiy fonetik belgisi ovoz ustuvorligi bo'lsa, undoshlarda shovqin elementi yetakchi hisoblanadi.

Undosh tovushlar o'z fonetik xususiyatlariga ko'ra jarangli va jarangsiz turlarga bo'linadi. Ingliz tili undosh tovushlarining talaffuzida muhim jihatlardan biri shundaki, jarangli undoshlar so'z oxirida ham jarangliligini yo'qotmaydi. Ularni jarangsizlashtirib talaffuz qilish so'z ma'nosining tubdan o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan: *feed-feet*, *believe-belief*, *had-hat* kabi juftliklarda undosh tovushlarning jarangli yoki jarangsizligi leksik ma'noni farqlovchi fonologik belgi vazifasini bajaradi. Urg'uli bo'g'inda undosh tovushlar har qanday unli oldida aniq va kuchli talaffuz qilinadi.

Ingliz tilida so'zlar o'zbek tilida bo'lgani kabi bo'g'inlarga bo'linadi va bo'g'in ajratuvchi vazifani asosan unlilar bajaradi. Bundan tashqari, *m*, *n*, *l* sonant tovushlari

soʻz oxirida kelib, ulardan oldin jarangli undoshlar (*b, v, d*) ishtirok etganda ham boʻgʻin hosil qilishi mumkin. Masalan: *seven* [se/ven].

Intonatsiya, soʻz urgʻusi va pauza toʻgʻri talaffuzni shakllantirishda muhim prosodik omillar hisoblanadi. Ingliz tilida talaffuz meʼyorlarini toʻgʻri oʻzlashtirish jarayonida dialogik va monologik nutq turlari asosiy nazorat obyekti sifatida xizmat qiladi. Aynan ushbu nutq shakllari orqali oʻquvchilarda meʼyoriy talaffuz koʻnikmalari shakllantiriladi .

Xulosa qilib aytganda, talaffuzni oʻrgatish jarayonida oʻzbek va ingliz tillari fonetik tizimlari oʻrtasida mavjud boʻlgan farqlarni inobatga olish zarur. Ana shu farqlar tufayli yuzaga keladigan konkret qiyinchiliklarni muntazam va tizimli fonetik mashqlar yordamida bartaraf etish mumkin.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, oʻzbek tilida soʻzlashuvchi talabalar uchun ingliz tilini qisqa muddatda oʻzlashtirish va toʻgʻri talaffuz bilan ravon nutq hosil qilish imkonini beruvchi muhim ustunlik mavjud. Bu, avvalo, oʻzbek tilining davlat tili maqomiga ega boʻlishi hamda lotin alifbosiga oʻtilganligi bilan bogʻliqdir. Ingliz tilining orfografik tizimi ham lotin yozuviga asoslangan boʻlib, bu omil harflarni oʻzlashtirishda maʼlum darajada qulaylik yaratadi. Bugungi kunda ingliz tili global muloqot vositasi sifatida dunyo aholisining katta qismi tomonidan qoʻllanilmoqda. Shu bois ingliz tilini oʻrganishga boʻlgan qiziqish yil sayin ortib bormoqda. Ingliz tilining jarangdorligi va estetik eshitilishi esa bevosita uning qay darajada toʻgʻri va meʼyoriy talaffuz qilinishi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Reference

1. Bernshtain S. I. Learn to speak by speaking // Hamkor konferensiyalar. – 1962.– C. 12-18.
2. Mirollyubov A. A. O'rta maktablarda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi // Hamkor konferensiyalar. – Toshkent, 1974.– C. 45-52.
3. Аграновская Л. Д. Развитие навыков устной речи // Hamkor konferensiyalar. – 1964.– C. 101-108.
4. Количева Е. Н. Начальные сведения по английскому языку // Hamkor konferensiyalar. – 1979.– C. 220-227.
5. Toshtemirovich A. D. Tilshunoslikda tovushga taqlid (onomatopoetik) nazariyasi va uning ahamiyati //Hamkor konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 14. – C. 781-785.